ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA RESURSLARINI YARATISH BILAN BOG'LIQ LOYIHALARINI ISHLAB CHIQISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
"Iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi
Bo'riboyeva Zamiraxon Ravshan qizi
Pochta manzili: ***zamiraboriboeva@gmail.com***

Annotatsiya. Maqolada respublikamizda qayta tiklanadigan energiya resurslarini yaratish bilan bog'liq loyihalarni ishlab chiqish va boshqarishni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirishning qator iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanish mamlakatimiz umumiy energiya iste'molida qayta tiklanuvchi energiya ulushining oshishiga, o'z navbatida, yuqori iqtisodiy samaraga erishish, atrof-muhitga salbiy ta'sirning kamayishi va barqaror rivojlanishga erishish, jahon mamlakatlari tajribasi asosida yashil energiya tizimiga o'tishga qaratilgan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. investitsiya loyihalari, energetika tarmog'i, iqtisodiy o'sish, aholi turmush darajasini oshishi, shamol energetikasi, xalqaro moliya institutlari, gidro elektr stansiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, quyosh elektr stansiyalari.

Abstract. The article presents proposals and recommendations aimed at developing and managing projects to create renewable energy resources in our republic, using a number of economic mechanisms to stimulate the use of renewable energy sources to increase their share in the country's total energy consumption. This, in turn, will allow achieving high economic efficiency, reducing negative environmental impact, and ensuring sustainable development. The transition to a green energy system based on global experience is also being considered.

Keywords: investment projects, energy sector, economic growth, improving the living standards of the population, wind energy, international financial institutions, hydroelectric power plants, socio-economic development, solar power plants.

Аннотация. В статье представлены предложения и рекомендации, направленные на развитие разработки и управления проектами по созданию возобновляемых энергетических ресурсов в нашей республике, использование ряда экономических механизмов стимулирования применения возобновляемых источников энергии для увеличения их доли в общем энергопотреблении страны. Это, в свою очередь, позволит достичь высокой экономической эффективности, снизить негативное воздействие на окружающую среду и обеспечить устойчивое развитие. Также рассматривается переход к зеленой энергетической системе на основе мирового опыта.

Ключевые слова: инвестиционные проекты, энергетическая отрасль, экономический рост, повышение уровня жизни населения, ветроэнергетика, международные финансовые институты, гидроэлектростанции, социально-экономическое развитие, солнечные электростанции.

Kirish. Mamlakatimizda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ham evrokreditlar va boshqa rivojlangan xorij banklarining kreditlari, xorijiy investorlarning mablag'lari, respublika aktsiyadorlik tijorat va xususiy banklarining kreditlari faollashmoqda. O'zbekistonda ichki resurslar cheklanganligi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-6

va mamlakatning tashqi qarz yuki ko'rsatkichining nisbatan pastligi sharoitida yillar davomida yig'ilgan «investitsion chanqoqlik», shuningdek, dolzarb iqtisodiy vazifalarni hal etish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali iqtisodiyotdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish zaruriyati tashqi qarzni oshirish imkoniyatidan foydalanishga turtki bo'ldi.

Bu, o'z navbatida, tijorat banklarining xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish faolligining oshishiga hamda iste'mol kreditlari bozorining rivojlanishiga olib keldi. Bunday manzara investitsiya faoliyatni jadallashtirish, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish va loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish jihatdan ijobiy holat hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Yirik xalqaro moliyaviy institutlardan Osiyo taraqqiyot banki O'zbekistondagi xususiy sektor va tijorat banklari loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi, yo'l infratuzilmasini kengaytirish loyihalarini amalga oshiradi, texnologiya, muhandislik va matematika yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash va rivojlantirish dasturlarini takomillashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish va elektr energetika tarmog'ini yanada mutanosib rivojlanishini ta'minlash maqsadida xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda bir qator yirik investitsion loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

1-rasm. O'zbekiston Respublikasi elektr energetika tarmog'ini rivojlantirish ning asosiy yo'nalishlari

Energiya resurslariga bo'lgan ichki talab iqtisodiy rivojlanishning kutilayotgan dinamikasi, iqtisodiyot tuzilishining o'zgarishi va uning o'ziga xos energiya intensivligi darajasi bilan belgilanadi.


Iqtisodiyotning energiya sarfi hajmi kamaytirish elektr energetika siyosatining asosiy vazifasi bo'lib, mazkur vazifaning bajarilmasligi energetika sohasining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muqarrar ravishda to'sqinlik qilishiga olib keladi.

2019-2024 yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarishda yiliga o'rtacha 2,6 foiz miqdorida o'sish kuzatildi. Biroq elektr energiyasiga bo'lgan talab to'liq qondirilmadi, taqchillik talabning 9,4 foizini tashkil etdi.

Prognoz natijalari bo'yicha, 2030 yilgacha bo'lgan davrda Respublikada elektr energiyasiga bo'lgan talabning yillik o'sishi 6-7 foizga teng bo'ladi.

2030 yilga kelib respublika iste'moli 120.8 mlrd.kVt.s (2018 yilga nisbatan 1,9 baravar ko'p) bo'lishi prognoz qilinmoqda. SHu bilan birga aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabi – 21,9 mlrd.kVt.s (2018 yilga nisbatan 1,8 baravar ko'p), iqtisodiy sektorning elektr energiyasiga bo'lgan talabi – 85,0 mlrd.kVt.s (2018 yilga nisbatan 2,2 baravar ko'p) bo'lishi kutilmoqda.


ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024



ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024


THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6



2-rasm. 2030 yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarish va iste'mol qilishning prognoz dinamikasi, (mlrd.kVt.ch.)

2030-yilga kelib aholi jon boshiga elektr energiyasi iste'moli yiliga 2,665 kVt soatgacha oshishi va 2018-yildagi 1,903 kVt.soatga nisbatan 71,4 foizga oshishi kutilmoqda. O'z navbatida, ushbu ko'rsatkich 2018 yil yakunlari bo'yicha Koreyada - 9711, Xitoyda - 4292, Rossiyada - 6257, Qozog'istonda - 5133, Turkiya - 2637 kVt.soat miqdorida qayd etilgan ko'rsatkichdan ancha past.



3-rasm. Aholi jon boshiga elektr energiyasi iste'moli, (kVt.s. yiliga)

Elektr energiyasi iste'molining ortishiga olib keluvchi asosiy omillar: iqtisodiy o'sish (2030 yilga borib YAIM 1,9 barobar oshishi kutilmoqda); aholi turmush darajasini oshishi, bu o'z navbatida maishiy texnikadan foydalanishni ko'payishiga olib keladi;

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bir vaqtning o'zida urbanizatsiya darajasi o'sishi bilan mamlakat aholisining 37,4 mln. kishiga ko'payishi kutilmoqda.

Qayta tiklanadigan energetikaning rivojlanish ko'rsatkichlariga erishish maqsadida 2020-2030 yillarda 3 GVt shamol va 5 GVt quyosh elektr stansiyalarini qurish ko'zda tutilgan QTEMlarning har


ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

yili foydalanishga topshiriladigan quvvatlarining maqsadli parametrlari belgilangan.

Shamol energetikasida asosiy e'tibor xar birining quvvati 100-500 MVt bo'lgan yirik shamol elektr stansiyalarini tashkil etishga qaratiladi, ularning asosiy qismi Shimoli-g'arbiy mintaqada (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyati) joylashtiriladi.

Quvvati 100-500 MVt bo'lgan quyosh elektr stansiyalari asosan markaziy va janubiy viloyatlarda (Jizzax, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari) joylashtirish ko'zda tutilgan. Biroq, respublikaning boshqa mintaqalarida 50-200 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyalari quriladi. SHu bilan birga, yirik quyosh fotoelektrik stansiyalari (300 MVt dan ortiq) o'zgaruvchan ishlab chiqarishni barqarorligini va energotizimda iste'molning tig'iz soatlaridagi maksimal yuklamani tartibga solishni ta'minlash uchun sanoat miqyosida energiya saqlash tizimlari bilan bosqichma-bosqich jihozlanadi.

Respublikaning qayta tiklanadigan energetika sohasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish maqsadida, 2022-2025 yillarda, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda "Build-own-operate" modelidan foydalangan holda investorlarni aniqlash bo'yicha tenderlar o'tkaziladi, ular bilan elektr energiyasini sotib olish bo'yicha uzoq muddatli 25 yilgacha shartnomalar tuziladi.



2.5-rasm. 2030 yilga qadar QTEM asosida energiya ishlab chiqarish tuzilmasi, MVt

Shuningdek, respublikaning olis aholi punktlarida, ekoturizmni rivojlantirish rejalashtirilayotgan mintaqalarda hamda izolyasiyalangan (yagona elektr energiyasi tizimiga ulanmagan) kichik quyosh elektr stansiyalarini yaratishga ham e'tibor qaratiladi.


Bundan tashqari, ishlab chiqarish korxonalari va sanoat texnoparklarning shaxsiy ehtiyojlari uchun elektr energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha o'rta quvvatli (1-2 MVt) quyosh elektr stansiyalari quriladi.

Iste'molchilarning o'z ehtiyojlari uchun elektr energiyasini ishlab chiqarish va ortiqcha elektr energiyasini tizimiga etkazib berish qobiliyatining jadal o'sishini hisobga olgan holda, shuningdek, respublikada investitsiya salohiyati faollashishini rag'batlantirish maqsadida 2021-2025 yillarda 150 mingga Yaqin quyosh fotoelektr stansiyalarini (quvvati 2-3 kVt) va uy xo'jaliklarining 2-2,5 foizida suv isitgichlari (o'rtacha 200 litr) o'rnatishni ko'zda tutuvchi maqsadli dastur tasdiqlandi.

2026 yilga kelib, aholi tomonidan QTEM ob'ektlari o'rnatilishini hisobga olgan holda,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

respublikadagi uy xo‘jaliklarining 4,3 foizini yiliga qariyb 800 mln. kVt.s. hajmida elektr energiyasi bilan ta’minlash rejalashtirilmoqda.



2.6-rasm. 2018-2030 yillarda GESlarning o‘rnatilgan quvvatining o‘sishi, MVt

2020-2030 yillarda 62 ta loyiha bo‘yicha ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan, shu jumladan, umumiy quvvati 1537 MVt bo‘lgan 35 ta gidro elektr stansiyalari qurilishi va quvvati 186 MVt ga oshirilgan 27 ta gidro elektr stansiyalarni modernizatsiya qilish mo‘ljallangan. Natijada, 2030 yilga kelib, GESlarning umumiy quvvati 3785 MVtni tashkil qilib, ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi - 13,1 milliard kVt soatni tashkil qiladi.

2030 yilgacha yangi gidro elektr stansiyalar qurilishi rejalashtirilgan, shu jumladan:

Markaziy energiya uzelida: umumiy quvvati 1176 MVt bo‘lgan 6 ta yirik GES, 33 MVt quvvatga ega 3 KGES va 2 MVt quvvatga ega 2 ta mikro GES;

Janubi-g‘arbiy energiya uzelida: umumiy quvvati 114 MVt bo‘lgan 17 ta KGES va 5 MVt quvvatga ega 5 ta mikro GES;

Janubiy energiya uzelida: umumiy quvvati 271 MVt bo‘lgan 4 ta GES va 25 MVt quvvatga ega 1 ta KGES;

Sharqiy energiya uzelida: umumiy quvvati 68 MVt bo‘lgan 8 ta KGES va 5 MVt quvvatga ega 9 ta mikro GES.

2020 yilda Jahon bankining ko‘magi bilan yangi ishlab chiqarish quvvatlari, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalari integratsiyasini hisobga olgan holda magistral elektr tarmoqlarini 2030 yilgacha bo‘lgan davr uchun rivojlantirish rejasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Elektr ta’minoti ishonchliligini oshirish uchun 2025 yilga kelib, yagona elektr energetika tiziminining barcha uzellari 500 kV elektr tarmoqlari orqali bog‘lanadi.

Ushbu vazifaning samaradorligiga quyidagi asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali erishiladi:

Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini birlashtirish va shimoli-g‘arbiy energiya uzelida elektr energiyasi bilan ta’minlashning ishonchliligini oshirish, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyatida yangi ishga tushirilgan ishlab chiqarish quvvatlarini elektr energiyasi bilan ta’minlash quyidagi ob’ektlarni qurish orqali amalga oshiriladi.

a) Navoiy IESdan Besopan podstansiyasigacha uzunligi 177 km bo‘lgan 500 kV kuchlanish gabaritida 220 kV kuchlanishli keyinchalik 500 kVga o‘tkazish orqali EUL qurish;

b) har birining quvvati 501 MVA bo‘lgan ikki avtotransformatorli 500/220 kV Muruntau

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

podstansiyasini qurish;

v) har birining quvvati 501 MVA bo‘lgan ikki avtotransformatorli 500 kV Sarimoy podstansiyasini qurish;

g) Sarimoy podstansiyasidan Muruntau podstansiyasigacha uzunligi 226 km bo‘lgan 500 kV kuchlanishli EUL qurish;

d) Sarimoy podstansiyasidan Qorako‘l podstansiyasigacha uzunligi 255 km bo‘lgan 500 kV kuchlanishli EUL qurish;

Toshkent va Toshkent viloyatida iste’molchilarning elektr energiyasiga bo‘lgan tez o‘sib boruvchi talabini, har birining quvvati 501 MVA bo‘lgan ikki avtotransformatorli 500/220/110 kV podstansiya va uzunligi 46 km bo‘lgan 500 kV kuchlanishli EUL (L-550 va L-502 dan kirish-chiqish) qurish orqali qoplash;

Janubiy energiya uzelini ishonchliligini oshirish, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish va boshqa davlatlarning energiya tizimlari bilan o‘zaro integratsiyasini yaxshilash quyidagi elektr ta’minoti ob’ektlarini qurish orqali bajariladi:

a) Surxondaryo viloyatida, har birining quvvati 501 MVA bo‘lgan ikki avtotransformatorli 500/220/110 kV podstansiya;

b) Surxon-500 PSdan (O‘zbekiston Respublikasi) Puli-Xumri PSgacha (Afg‘oniston Islom Respublikasi) uzunligi 200 km bo‘lgan 500 kV kuchlanishli EUL;

v) Guzar PSdan (O‘zbekiston Respublikasi) Regar PSgacha (Tojikiston Respublikasi) uzunligi 63 km bo‘lgan 500 kV kuchlanishli EUL;

220 kV EUL va PS ning vazifalari 2030-yilga borib, asta-sekinlik bilan tizimni tashkil etuvchi funksiyasidan taqsimot funksiyalariga o‘tkaziladi.

Ushbu vazifaning samaradorligi quyidagi asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta’minlanadi:

Magistral PS va EULlarni ikki bosqichda modernizatsiya va rekonstruksiya qilish:

a) birinchi bosqichda 2022 yilgacha - 22 ta PS 220/110 kV;

b) ikkinchi bosqichda 2028 yilgacha - 44 ta podstansiya va 110-220 kV kuchlanishli magistral EUL;

Umumiy quvvati 1250 MVA bo‘lgan beshta yangi 220 kV kuchlanishli ikki transformatorli PS va umumiy uzunligi 246 km bo‘lgan 220 kV kuchlanishli EUL qurish.

2017-2026yillar davomida, ya’ni oxirgi 10 yilda18 324 megavatt yoki besh yarim baravar ko‘p yangi quvvatlar ishga tushiriladi. Bu 1991 yildan 2016 yilga qadar ishga tushirilgan yangi quvvatlardan (3 300 megavat) 5 baravar ko‘p bo‘ladi.

Bundan tashqari, yirik sanoat korxonalari va elektr stansiyalari tashkil etilishi natijasida yangi qo‘shimcha 220 kV kuchlanishli PS va EUL quriladi.

Yuqoridagi loyihalarni amalga oshirishda texnik xizmat ko‘rsatish tezkorligini ta’minlash, shu jumladan ekpluatatsion harajatlarini kamaytirish va texnologik buzilishlar va og‘ishlarni tezda bartaraf etish uchun elektr energetika ob’ektlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, O’zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o’rni va rolini tobora ortib borayotganligini hamda mamlakatimizda loyihaviy moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlari faoliyati sezilarli darajada oshib borishini ko’rsatadi

Xulosa. Mamlakatda elektr energiyasiga talabni qondirish maqsadida hozirgi ishlab chiqarilayotgan elektr energiya ulushini kamaytirmay, unga qo‘shimcha tarzda muqobil energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirib borish darkor. Tabiiy va toza elektr energiyasi ishlab chiqarish natijasida, kelajak avlodga er osti qazilma boyliklarining tejalishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, chekka

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-6

qishloqlarga elektr energiyasi etib borishiga, vaqti-vaqti bilan elektr energiyasi o‘chib qolmasligi, texnika va texnologiyalarga zarar etkazmaslik, aholining turmush tarzi yaxshilanishi, atrof muhitning ifloslanishi hamda iqlim sababli turli ofatlarning oldi olinishiga erishiladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirishning qator iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanish mamlakatimiz umumiy energiya iste’molida qayta tiklanuvchi energiya ulushining oshishiga, o‘z navbatida, yuqori iqtisodiy samaraga erishish, atrof-muhitga salbiy ta’sirning kamayishi va oxir oqibatda, barqaror rivojlanishga erishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida” Qonuni. 21.05.2019 yildagi O‘RQ-539-son.
2. International Renewable Energy Agency – (IRENA).(2016) “Renewable energy benefits: measuring the economics”. –P. 10
3. В.Я. Ушаков “Основные проблемы энергетики и возможные способы их решения” Энергетика. Известия Томского политехнического университета. 2011. Т. 319. № 4
4. S.Q.Qahhorov, H.O.Jo’rayev, Y.Y.Jamilov, N.M. Hamdamova Qayta tiklanuvchi energiya manbalari o’quv qo’llanma 2021 y
5. **https://stat.uz**;
6. **www.het.uz**